

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI MAQOLLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Aytniyazova Nargiza Farxatovna

Taxiatosh tumani 3-sonli maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7194506>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalq maqollarida aks etgan "odam", "erkak", "ayol" konseptlari tahlil qilinib, ularning gender xususiyatlar yoritib berilgan. Misollar keltirilib ushbu xalqlarning urf-odatlarini, madaniyatidagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maqol, paremiologik, gender, konsept, lug'at, "odam", "erkak", "ayol" konseptlari.

Tilshunoslikda til va jins tushunchalarining o'zaro bog'liqligini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi unga oid terminologik masalalarni ham ko'rib chiqish ehtiyojini tug'diradi.

Gender terminining qo'llanilishi tilshunoslikka qanday ta'sir qilishi hamda qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi ko'pgina tadqiqotlarda asosiy masala bo'lib kelgan.

Tillarni qiyoslashdan avval ma'lum bir terminning qiyoslanayotgan tillar uchun adekvatligi, ya'ni mosligi muhim hisoblanadi[7:123]. Tadqiqotimizda gender terminining qo'llanilishi terminologik adekvatlik prinsipiga ko'ra tadqiq etiladi. Har ikki tilda gender bir vaqtning o'zida shaxsning ijtimoiy va madaniy shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o'zlashtirish jarayoni va natijasini ko'rsatuvchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganlarning har ikkisi, ya'ni tilda – paremiologik birliklar, maqollarda genderning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish bilan birga, shaxsning nutqiy faoliyatida genderning ahamiyati kabi muammolarni ham ko'rish mumkin.

"Odam" konseptining olamning lisoniy tasvirida milliy va umummadaniy xususiyatlarini ochishda izlanishlarning olib borilishi, "inson" konsepti tahlilisiz madaniyatni ta'riflash mumkin emasligini tasdiqlaydi. B.Mengliyevning odam leksemasining semantik jihatdan tahlili yoritilgan maqolasida "odam" leksemasini erkak sememasi bilan tenglashtirishning yaqqol ko'rinishini kuzatishimiz mumkin. Unga ko'ra, odam leksemasining mazmun silsilasi uchta genetik bog'langan nisbiy mustaqil sememalardan tashkil topgan bo'lib, ularning har birini nisbiy yaxlitlik sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin: 1. Fikrlash, so'zlash va mehnat qobiliyatiga ega maxluq. 2. Erkak kishi. 3. Voyaga yetgan kishi. O'zbek tilining etimologik lug'atida "Odam – arabcha so'z „adamu" shaklida yozilib, birinchi paydo bo'lgan kishi (Odam ota) ma'nosini, "adam" shaklida

yoziqla, kishi, inson ma'nosini anglatadi; o'zbek tiliga bu so'z adam (odam) shaklida kirib kelgan" [6:25]. Odam leksemasi o'zbek tili lug'atlarining har birida turlicha izohlangan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (bundan so'ng qisqacha O'TIL) odam – "kishilik jamiyatining ayrim bir a'zosi, shaxs" sifatida izohlanadi. "Eshitganmisiz bizning ellikboshimiz qanaqa odam? Butun mahallaning otasi. (Oybek. Qutlug' qon)". "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" da (bundan so'ng, qisqacha HO'TFSIL) odam leksemasi quyidagi ma'nolarda tavsiflangan: 1. Inson, kishi, oliy zot: Odam farzandi. 2. Jamiyatning har bir a'zosi, shaxs: Odamlarni chaqirib kelmoq. 3. Jamoa xo'jaligi yoki oilaning har bir a'zosi: Qaramog'ida beshta odami bor"[5] .

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglash mumkinki, odam leksemasi ham erkak, ham ayolni anglatadi. Chunki qayd etilgan lug'atlarning birortasida ham odam – erkak semasi bilan tenglashtirilmagan, ya'ni odam – erkak yoki odam – ayol tarzida izohlanmagan. Ammo yuqoridagi O'TIL da keltirilgan misolda, odam leksemasida erkak jinsi anglashilib, bu misolda erkak jinsi tushunchasi ustunlik qilgani yaqqol ko'rinib turibdi, ya'ni mahallaning otasi kabi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin: "...mo'ysafid yoshdagi shu odam – oz emas-ko'p emas, naq olti yuz ellik betlik ulkan romanni inglizchadan o'girib, o'quvchilarga tortiq qilishga jazm etdi". "Devonu lug'otit-turk"da er so'zi (ning izohi) odam bilan ifodalanganligi kuzatiladi:

"Pushmaz er bo'z qush tutar, evmas er o'rung qush tutar – Ishda siqilmaydigan odam oq lochini ham tutadi, shoshilmagan odam eng yaxshi bozini ovlaydi".

Yuqorida HO'TFSIL da keltirilgan misollarda esa, odam leksemasi ostida ikki jins, ya'ni ayol va erkakni anglash mumkin, zero bunday tushuncha jamiyatga xos an'anaviy tushunchalardan biridir. Mana shu samimiy iltijolar zamiridagi muruvvat har qanday bag'ritosh odamni ham eritib yuborgudek edi. Konseptning jamiyatda tutgan o'rni, uning ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi metodga ko'ra quyidagi holatga duch kelamiz, ya'ni odam leksemasi ko'p hollarda ayol tushunchasiga emas, balki erkak tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Misol uchun, bu leksemalarni oddiy hayotiy misollarda tahlil qilib ko'rsak, ya'ni eshikni erkak kishi taqillatsa, "Bir odam turibdi", – deyiladi va hech ikkilanmasdan erkak kishi nazarda tutiladi. Ammo, eshikni ayol kishi taqillatsa, hech qachon "Bir odam turibdi" deyilmasdan, balki "Bir xotin turibdi", – deyiladi. Ushbu misolda ham keltirilgan ayol so'zini odam so'zi bilan almashtirsak, shubhasiz, erkak ma'nosi anglashiladi. Solishtiring: Bu ayolning kimsasizligi, ojizligi ko'nglimni yumshatdi. Bu odamning kimsasizligi, ojizligi ko'nglimni yumshatdi. Quyidagi misol esa, ayol so'zini haqli ravishda odam so'zi o'rnida qo'llash mumkinligini tasdiqlaydi. Yuvosh-mo'min, dilovar, benihoya muloyim va beozor kampir dunyoga kelgan

daqiqadan beri “men ham odamman-ku”, – deganini hech kim eshitmagan ham bo’lsa kerak.

Xotin leksemasini tahlil qilishdan oldin shuni ta’kidlash lozimki, bu leksema ham o’zbek tili lug’atlarida turlicha ifodalangan, ya’ni unga “O’zbek tilining etimologik lug’ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Xotin – ayol, erga tekkan ayol”. Qizig’i shundaki, xotin leksemasi asli qaysi tildan kirib kelgani noma’lum. Ammo xotin leksemasi qadimgi turkiy yoki qirg’iz tilidan kirib kelgan, degan fikrlar ham mavjud. Dastlab bu leksema martabali kishining umr yo’ldoshi ma’nosini anglatgan. HO’TFSILda xotin leksemasi quyidagicha izohlanadi:

1. Erkakka zid jinsli shaxs: Xotin kishi.
2. Nikohdagi ayol: Xotin bilan inoq yashamoq.

Demak, turmushdagi ayol ham, erkakka zid jinsli shaxs ham bitta, ya’ni xotin so’zi bilan atalar ekan, – deyishimiz mumkin. O’zbek va qoraqalpoq xalq maqollari tahlili jarayonida ham ayolning maqomini aniqlashda gender muammolarga duch kelish mumkin:

Erkakka zid jins sifatida:

Erni er qiladigan ham xotin,                      Erdi er qiladug’in da qatin,  
Qaro yer qiladigan ham xotin.                      Jer qiladug’in da qatin.

Turmushdagi ayolga nisbatan:

Er-u xotin urushar,                      Erli-zayip arasina esi ketken tusedi.  
O’rtaga nodon tushar.

O’zbek va qoraqalpoq tillarida xotin leksemasi ikki xil tushunchani anglatadi, ammo er va erkak leksemalari alohida tushunchalar sifatida qaraladi, degan fikrni tasdiqlovchi maqollar ko’p uchraydi.

Er (O’TEL, 2000) “qadimgi turkiy tilda xotin bilan nikoh ahdidagi erkak. Bu so’z dastlab „erkak jinsiga mansub” ma’nosini anglatgan sifat bo’lgan, ot ma’nosini esa, keyinchalik anglata boshlagan”.

HO’TFSIL da er leksemasi quyidagicha ifodalangan:

1. Erkak.                      Jinsi – er, millati o’zbek.
2. Nikohda bo’lgan erkak.                      Er – xotin qo’sh ho’kiz.
3. Mard, jasur.                      Er yigitlar Vatanni qo’riqlaydi.

Erkak (O’TEL, 2000) qadimgi turkiy tilda er jinsiga mansub kishi ma’nosini anglatgan “er” so’zidan – “kak” qo’shimchasi bilan yasalgan bo’lib, asli sifat ma’nosini anglatgan, ot ma’nosi keyinchalik yuzaga kelgan: er+kak=erkak [3].

HO’TFSIL da erkak – jinsiy jihatdan xotin kishiga zid bo’lgan odam. Masalan: Erkak bor uyda, fayz boshqacha bo’ladi.

“Qaraqalpaq tilinin’ tusindirime so’zligi”da er leksemasi quyidagicha izohlanadi: 1. Bay, ku’yew, jubay, qostar. ... menin’ erim ag’an’iz Babaxan patshanin’ inisi ha’m

at seyisi edi (“Ma’spatsha”). 2. Batir, azamat, ju’rekli, g’ayratli, ku’shli, xaliq ushin xizmet etetug’in adam. Er jigit eli ushin tuwiladi, eli ushin o’ledi (QQ. X. E.) Shuningdek, tahlillar davomida bola leksemasi bilan o’g’il leksemalari orasidagi munosabatlar ko’rib chiqildi.

O’TEL da bola leksemasi quyidagicha izohlangan:

BOLA qadimgi turkiy tilda “go’dak”, “farzand”.

HO’TFSIL da BOLA:

1. Hali ona bag’ridan ajralmagan inson, go’dak: Bolani voyaga yetkazmoq.
2. Hali voyaga yetmagan inson: Ko’chada yurgan bolalar.
3. Farzand: O’z bolasi. Qo’shning bolasi.

Ko’rinib turibdiki, hech bir lug’atda bola so’zi u yoki bu darajada o’g’il bilan tenglashtirilmagan, ya’ni u har ikki jinsni anglatadi.

Sinfga kirib borishimiz bolalarni ancha sarosimaga solib qo’ydi.

Biroq ba’zi bir hollarda bu so’zni o’g’ilga tenglashtirilishining guvohi bo’lamiz. “O’zbek xalq maqollari”ning “Farzand va farzandsizlik” bo’limida quyidagi misollar keltirilgan:

Bola bo’lsa, sho’x bo’lsin,

Sho’x bo’lmasa, yo’q bo’lsin.

Bola ko’ngli – podsho[2:257] .

Xuddi shu maqollar “Erk va erksizlik” bo’limida quyidagicha berilgan:

Yigit bo’lsang, sho’x bo’l.

Sho’x bo’lmasang, yo’q bo’l.

Yigit ko’ngli podsho [2:305] .

“Qaraqalpaq folklori – naqil-maqallar” kitobining “Ata-ana, tuwisqan-tuwg’anlar arasindag’i qarim-qatnaslar (na’siyat) haqqindag’i naqil-maqallar” hamda “Batir, er-azamatliq tuwrali naqil-maqallar” bo’limlarida ushbu maqollarning quyidagi shakllari uchraydi:

Jigit bolsan’ shoq bol,

Shoq bolmasan’ joq bol.

Balaliq shag’i – patshanin’ tag’i[1:206].

Quyidagi maqolda ham keltirilgan “bola” leksik birligi “o’g’il” leksik birligi bilan tenglashtirilgan:

Kelinning so’zi ketmonday botar,

Bolaning so’zi botmonday botar.

Agar maqolni o’zgartirsak, ya’ni “bola” o’rniga “o’g’il” ni qo’llasak, quyidagi holat yuzaga kelgan bo’lardi:

Kelinning so’zi ketmonday botar,

O’g’ilning so’zi botmonday botar.

Qoraqalpoq tilida bu maqolga ma'no jihatdan to'g'ri keladigan maqol shakl jihatdan tubdan farq qiladi:

On ku'yewdin' kemisin ko'rmegen ana,

Bir kelinnin' minin ko'rgish boladi [8:75].

Ko'rinib turibdiki, maqolda o'g'il so'zining o'rniga kuyov so'zi qo'llanilgan.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, o'zbek va qoraqalpoq tillarining gender tahlili leksemalar orasida erkaklik olami tasviri ustun ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida paremiologik birliklarning ko'p qismini xalq ijodiyoti bilan bog'liq bo'lgan maqollar tashkil etadi hamda ularda oddiy xalq vakillariga nisbatan qaratilgan yo'nalish hukmronidir. Ayol va erkak konseptlari turli konseptual qatlamlarda har xil darajada tasvirlanadi. Ayol va erkaklarning fe'l-atvoridagi xususiyatlar tahlili har ikki tilda erkaklarga "botirlik" va "jasurlik" kabi xislatlar tegishli ekanini ko'rsatdi.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, mustahkam bo'lishida tilning, madaniyatning o'rni beqiyosdir. Demak, gender tenglik shak-shubhasiz tilda o'z ta'sirini va ifodasini topishi kerak.

#### REFERENCES

1. Qaraqalpaq folklori-naqil-maqallar. Toshkent, 2019. 114, 206-b.
2. Мирзаев Т., Мусоқулов А. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 508 б. 272-б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили этимологик лугати (туркий сўзлар). - Тошкент: Университет, 2000. –402- б.
4. Иминов А. Оқ кийинган аёл. – Тошкент: Ўзб. Миллий кутубхонаси, 2010. – 649 б. 5-б.
5. Hojiyev A, Nurmonov A. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001.
6. Менглиев Б. "Одам" лексемаси ва сатҳлараро муносабатлар // Тилнинг аксиологик механизмлари ва матн эмоционалиги. Маърузалар баёни тўплами. – Тошкент, 2001. – Б. 25-28.
7. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – 123с.
8. kitarxana.com - Қарақалпақ әдебиятының электрон китапханасы. Халық - Қарақалпақ фольклоры - Нақыл-мақаллар. 75-б.